

ILMIY MATN SHAKLLANISHIDA KOGNITIV BAHOLASH VA NUTQIY TA'SIR OMILLARI

Xudoyberdiyeva Nargiza Tolibjon qizi,
*Samarqand davlat chet tillari insituti
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv asosida matn, diskurs va interdiskurs tushunchalarining o'zaro munosabati tahlil qilinadi. Ilmiy matnning shakllanish jarayoni kognitiv-nutqiy faoliyat sifatida qaralib, unda kognitiv baholash va intellektual ekspressiyaning o'rni asoslanadi. Shuningdek, ilmiy diskursda nutqiy ta'sirning argumentatsiya orqali namoyon bo'lishi, bilimlarning kommunikanlar o'rtasida uzatilishi va o'zgarishi masalalari yoritiladi. Maqolada ilmiy matn faqat til birligi emas, balki intellektual-emotsional faoliyat mahsuli sifatida talqin qilinib, uni tahlil qilishda fanlararo yondashuvning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy diskurs, matn, interdiskurs, kognitiv baholash, intellektual ekspressiya, nutqiy ta'sir, argumentatsiya, antropotsentrik yondashuv, funksional stilistika, ekstralingvistik omillar.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь понятий текста, дискурса и интердискурса в современной лингвистике на основе антропоцентрического подхода. Процесс формирования научного текста рассматривается как когнитивно-речевая деятельность, в которой обосновывается роль когнитивной оценки и интеллектуальной экспрессии. Также освещаются вопросы проявления речевого воздействия в научном дискурсе посредством аргументации, передачи и трансформации знаний между коммуникантами. В статье научный текст интерпретируется не только как языковая единица, но и как продукт интеллектуально-эмоциональной деятельности, а также подчеркивается значение междисциплинарного подхода в его анализе.

Ключевые слова: научный дискурс, текст, интердискурс, когнитивная оценка, интеллектуальная экспрессия, речевое воздействие, аргументация, антропоцентрический подход, функциональная стилестика, экстралингвистические факторы.

Annotation. This article analyzes the interrelation of the concepts of text, discourse, and inter discourse in modern linguistics based on an anthropocentric approach. The process of scientific text formation is considered as a cognitive-speech activity, highlighting the role of cognitive evaluation and intellectual expression. The paper also examines how speech influence is manifested in scientific discourse through argumentation, as well as how knowledge is transmitted and transformed between communicants. The scientific text is interpreted not only as a linguistic unit but also as a product of intellectual and emotional activity, emphasizing the importance of an interdisciplinary approach in its analysis.

Keywords: scientific discourse, text, interdiscourse, cognitive evaluation, intellectual expression, speech influence, argumentation, anthropocentric approach, functional stylistics, extralinguistic factors.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda ilmiy matnning shakllanishi nafaqat grammatik va stilistik me'yorlar, balki inson tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan kognitiv jarayonlar hamda nutqiy ta'sir omillarining o'zaro uyg'unligi asosida talqin etilmoqda. Xususan, ilmiy nutqni yaratishda muallifning borliqni qanday idrok etishi, uni baholashi va mazkur baholashni til vositalari orqali qanday ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, kognitiv baholash mexanizmlari ilmiy matn mazmunining shakllanishida markaziy o'rin egallaydi.

Ilmiy matn an'anaviy ravishda obyektivlik, aniqlik va mantiqiylik kabi mezonlar bilan tavsiflanadi. Biroq so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har qanday ilmiy bayon

ham muallifning subyektiv kognitiv tajribasi, bilimlar tizimi va konseptual qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu esa ilmiy matnda baholash kategoriyasining yashirin yoki ochiq shaklda namoyon bo‘lishiga olib keladi. Natijada, muallif o‘z ilmiy pozitsiyasini asoslash, dalillarni tizimlashtirish va o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishda turli nutqiy strategiyalardan foydalanadi.

Nutqiy ta’sir omillari esa ilmiy matnning kommunikativ samaradorligini ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali muallif o‘z fikrlarini nafaqat bayon etadi, balki o‘quvchini muayyan xulosaga yo‘naltiradi, ilmiy dalillarning ishonchliligini mustahkamlaydi va matnning pragmatik qiymatini oshiradi. Bu jarayonda til birliklarining tanlanishi, terminologiyaning qo‘llanishi, mantiqiy bog‘lovchilar hamda stilistik vositalar muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolada ilmiy matn shakllanishida kognitiv baholash va nutqiy ta’sir omillarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy nutqda baholash kategoriyasining ifodalanish usullari hamda uning matnning umumiy strukturasi va kommunikativ maqsadlariga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. XXI asrda ilmiy qarashlarda til o‘rganish nutq bilan bog‘liq holda amalga oshirilmog‘da, va til hodisalarini inson bilan o‘zaro aloqda deb tushunish, ya’ni antropotsentrik yondashuvning ahamiyati oshirmog‘da.

Hozirgi davrda *Émile Benveniste* tomonidan ilgari surilgan “inson va tilning o‘zaro uyg‘unligi” haqidagi qarashlar hamda Martin Heideggerning tilni inson ma’naviy mavjudligining ifoda makoni sifatida talqin qiluvchi fikrlari zamonaviy tilshunoslikda bir qator yo‘nalishlar uchun nazariy tayanch va metodologik asos vazifasini bajarmog‘da. Xususan, ushbu yondashuvlar diskurs tahlili va funksional stilistika sohalarida tadqiqot olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu yo‘nalishlar muayyan mustaqillikka ega bo‘lishiga qaramay, *Margarita N. Kojina* ta’kidlaganidek, ularni bir qator umumiy jihatlar o‘zaro bog‘lab turadi. Jumladan, bu yo‘nalishlarda tilning dinamik va jarayonli tabiatiga e’tibor qaratilib, u kognitiv-nutqiy faoliyat sifatida talqin etiladi; o‘rganilayotgan ob’yektning ekstralingvistik omillar bilan belgilanishi tan olinadi; til vositalaridan foydalanishda tizimlilik tamoyiliga amal qilinadi; matnlar nutqiy (diskursiv) faoliyat natijasi sifatida baholanib, ayni paytda ushbu faoliyatni o‘rganishning muhim manbai sifatida qaraladi; shuningdek, til hodisalarini tahlil qilishda fanlararo yondashuvdan keng foydalaniladi [5, 25-30].

Shu bois matnni funksional-stilistik tahlil qilish, ya’ni uning rivojlanish dinamikasiga hamda olimning bilish faoliyatining til strukturalarida namoyon bo‘lish jarayoniga alohida e’tibor qaratish ayni paytda diskursiv tahlil mohiyatini kasb etadi. Zero, bunday yondashuvda matn intellektual-ma’naviy ijod mahsuli sifatida qaraladi.

Umuman olganda, matn diskurs nazariyasi va funksional stilistika uchun birlashtiruvchi tushuncha, ma’lum ma’noda universal kategoriya hisoblanadi. Patrik

Seriotning fikriga ko'ra, diskurs faqat muayyan mazmuniy-verbal tuzilishga ega bo'lgan matn emas, balki undan ham kengroq hodisadir. U matn chegarasidan tashqarida joylashgan tashqi omillar bilan bog'lovchi munosabatlar tarmog'idan tashkil topgan [8, 53].

Xuddi shu tarzda, aynan diskurs sifatida matn funksional stilistikada ham talqin qilingan. Jumladan, matn faqat til birligi sifatida, ya'ni intralingvistik jihatdan emas, balki kommunikativ birlik, muloqot vastiasi sifatida ham o'rganiladi. Shu bois, uni anglash uchun faqat lingvistik bilimlarning o'zi yetarli emas, muloqot vaziyatini, bir qator ekstralingvistik omillarni, shuningdek, bilish-kommunikativ faoliyat kechadigan keng kontekstni ham hisobga olish talab etiladi [6, 38].

Shunday qilib, har ikkala yo'nalishda ham matnni o'rganish uning shakl va mazmun birligi, ya'ni grammatik qurilish va tafakkur mazmunining o'zaro bog'liqligini anglash asosida amalga oshiriladi. Ayni paytda, zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs terminlari bilan bir qatorda *intertekst* va *interdiskurs* terminlari ham qo'llanilmoqda. Intertekst odatda muayyan "o'z" matnining boshqa "begona" matnlar bilan o'zaro munosabati yoki bir kontekst doirasida turli fikrlar muloqoti sifatida talqin qilinadi. Interdiskurs esa bir qancha diskurslarning integratsiyasi natijasida vujudga keladigan hodisa bo'lib, mazmun va vazifa jihatdan o'zaro bog'langan ko'plab matnlarni birlashtiruvchi ma'lum bir makonni anglatadi.

Tadqiqot metodlari. Ilmiy faoliyat sohasida matn shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan olib borilgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ilmiy matnni bir tomondan diskurs sifatida (*obyektning shakliy hamda mazmuniy-ma'naviy tomonlarini hisobga olgan holda*), ikkinchi tomondan esa interdiskurs sifatida ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Interdiskurs – *vaqt* va *makon* davomida uzluksiz kechadigan kommunikativ jarayon bo'lib, u insonning intellektual-ma'naviy hamda madaniy-tarixiy faoliyati bilan bog'liq. Mazkur faoliyat voqelikni obyektiv tasvirlashga qaratilgan bo'lib, ushbu voqelik haqidagi bilimlarni yagona ilmiy qadriyatlar tizimiga birlashtiradi.

Demak, ilmiy muloqot jarayonida matn shakllanishi dinamikasini tadqiq etish faqat matnning o'zi bilan cheklanib qolmay, balki intellektual-emotsional faoliyat sohasiga murojaat qilishni talab qiladi. Bunda ilmiy bilish jarayoni "ruhning kuchli intilishi" sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bilishning irratsional qatlami ratsional tafakkurga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu holat ilm-fanning tabiati bilan izohlanadi, chunki ilm-fan obyektiv haqiqatni izlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, bunday ilmiy qarashlar ommaviy faoliyat natijasi bo'la olmaydi. Shuning uchun yangi ilmiy bilimni izlash va uni asoslash jarayonida tafakkurning emotsional, ya'ni baholovchi sohasi muhim rol o'ynaydi. Ushbu matn hosil qiluvchi hodisani shartli ravishda *kognitiv (bilishga oid)* baholash deb atash mumkin.

Kognitiv baholash deganda so'zlovchi ya'ni matn muallifi tomonidan bilish jarayonining muayyan bosqichida yangi bilimni yetarlicha dalillash maqsadida ma'lum bir

kognitiv harakatni hamda uni matnda ifodalash uchun zarur bo'lgan til va nutq vositalarini ongli ravishda tanlashi tushuniladi [3,169].

Natijalar. Kognitiv baholash (keyingi o'rinlarda KB) evristik jarayonning barcha bosqichlarida hamroh qilib, har qanday intellektual harakatning boshlang'ich asosini tashkil qiladi. Biroq, bilish jarayonining matnda ifodalanishi olim tomonidan faqat bilishning o'zi uchun emas, balki kutilgan o'quvchiga ham mo'ljallangan holda amalga oshirilishini ta'kidlash zarur. Faylasuflar ta'kidlaganidek, yangi bilimning ilmiy qadriyat sifatida shakllanishi baholash amaliyotiga asoslanadi. Zero, muayyan hodisaning qay tarzda yuzaga chiqqanini anglamay turib, uning mohiyatini izohlash mumkin emas [9, 294].

Muhokama. Ilmiy diskursda nutq va ma'no shakllanishi muhim tamoyili sifatida kognitiv baholash tushunchasi nutqiy ta'sir konsepsiyasi bilan hamohangdir. Bu haqida Ch.Larson, A.Baranov va R.Blakarlarning qarashlari ahamiyatli.

Masalan, Larsonning fikricha, tinglovchi va so'zlovchini ishontirish jarayonida teng darajada ishtirok etadi. Bir tomondan, yuboruvchi qabul qiluvchining ongiga ta'sir ko'rsatishga intiladi, ikkinchi tomondan esa uni o'z pozitsiyasiga ishontirish jarayonida yuboruvchining o'zi ham ichki dunyosini o'zgartiradi, uni qayta shakllantiradi. Zero, shu ma'noda ishontirish bir vaqtning o'zida o'z-o'zini ishontirish ham hisoblanadi [7, 369].

A.Baranov nutqiy ta'sirni kognitiv nuqtai nazardan sharhlar ekan, argumentatsiyani muloqot vaziyatida ishtirok etuvchi shaxslarning dunyo haqidagi tasavvurlarga ta'sir ko'rsatuvchi jarayon sifatida izohlaydi [1, 87]. Bu jarayonda bilim insondan boshqasiga o'tadi hamda, muloqotda qatnashuvchilarning mavjud qarashlari ma'lum darajada o'zgaradi. Ayniqsa, tinglovchi ongida yangi axborot hosil bo'ladi. Demak, nutqiy ta'sirning mohiyati shundaki, til vositalari orqali insonning dunyo haqidagi bilimlari boyiydi, yangilanadi, yoki o'zgaradi [2, 89].

R.Blakar konsepsiyasi qarashlariga ko'ra, har qanday nutqiy muloqot jarayoni har doim ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'ladi va shuning uchun ham u neytral bo'lishi mumkin emas [2, 65]. Hatto tashqi tomondan neytral ko'ringan, oddiy suhbatlar ham insonning dunyo haqidagi tasavvuriga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, so'zlovchi nafaqat muayyan mazmunni ifodalashning turli variantlarini tanlash imkoniyatiga ega, balki bu tanlovni amalga oshirishga majbur hamdir. Chunki har qanday nutqiy bayon so'zlovchini "ma'lum bir jarayonni egallashga" majbur qiladi [4, 361].

Obyektiv borliq haqidagi yangi bilimni yaratish, shakllantirish va ifodalash bilan bog'liq ilmiy muloqot jarayonida *ta'sir* masalasi ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Bu yerda *ta'sir* deganda yangi ilmiy bilimning haqiqat ekanligiga o'quvchini ishontirishga qaratilgan *argumentatsiya* jarayoni tushuniladi.

Intellektual ekspressiya – matnda muallifning ham yangi ilmiy bilimni izlash jarayoni, ham uni til orqali eng mos tarzda ifodalash usullarini topishga qaratilgan izlanishidir. Boshqacha aytganda, bunday matn parchalarida olimning kognitiv(dalilsash,

umumlashtirish, baholash kabi) faoliyati ko'zga tashlanadi, ya'ni yangi bilimni asoslash hamda uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Ikkinchi tomondan, bunday fragmentlar muallifning emotiv faoliyatini ham aks ettirib, o'quvchini yangi ilmiy bilimning haqqoniyligiga ishonitirishga xizmat qiladi. Intellektual ekspressiya odatda mazmuniy jihatdan zich tashkil etilgan diskurs parchalarida namoyon bo'lib, ularda aniqlashtirish, izohlash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi bir necha kognitiv harakatlar bir vaqtda uyg'unlashadi. Shu bilan birga, mazkur fragmentlarda emosional-baholovchi va ekspressiv til vositalari ham faol ishtirok etadi.

Bu holat ilmiy bilish jarayonida intellektual ekspressiyaning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi: yangi bilimni shakllantirish va ifodalash faqat mantiqiy tafakkurga emas, balki emotiv nutqiy faoliyatga ham tayanadi. Natijada, matnda muallifning kognitiv-baholovchi faoliyati orqali ilmiy mazmun aniq shakllanib, uning ontologik maydoni mantiqiy, kompozision va kommunikativ jihatdan yaxlit holga keladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikda matnni o'rganish antropotsentrik yondashuv asosida, ya'ni uni insonning kognitiv va nutqiy faoliyati bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilishni talab etadi. Ilmiy matn nafaqat til birligi, balki diskursiv va interdiskursiv jarayonlar bilan bog'liq murakkab kommunikativ hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Uning shakllanishida kognitiv baholash muhim o'rin tutib, u yangi bilimni izlash, asoslash va o'quvchiga yetkazish jarayonini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, ilmiy diskursda nutqiy ta'sir argumentatsiya orqali amalga oshirilib, bilimlarning uzatilishi va qayta shakllanishiga xizmat qiladi. Intellektual ekspressiya esa bu jarayonda kognitiv va emotiv omillarning uyg'unligini aks ettirib, ilmiy matnning mazmuniy zichligi va ta'sirchanligini oshiradi. Demak, ilmiy matnni to'liq anglash uchun uni faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki kognitiv, kommunikativ va pragmatik omillar birligida o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baranov A.N. Argumentatsiyaning lingvistik nazariyasi (kognitiv yondashuv): filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Moskva, 1990.
2. Blakar R.M. Til ijtimoiy hokimiyat vositasi sifatida // Til va ijtimoiy o'zaro ta'sirni modellashtirish. – Moskva: Progress, 1987. – B.88–125.
3. Jinkin N.I. G'oyadan so'zga: individ nutqi jarayon va faoliyat sifatida (1958) // Til. Nutq. Ijod (tanlangan asarlar). – Moskva: Labirint, 1998. –B. 79-169.
4. Kojina M.N. Ilmiy yozma nutqning dialogik xususiyati haqida. – Perm: Perm universiteti nashriyoti, 1986. – 91 b.
5. Kojina M.N. Butun matn matn stilistikasi obyekti sifatida // Stylistyka IV. – Opole, 1995. –B. 33-53.
6. Kintsel A.V. Emotsional-ma'noviy dominant matn hosil qiluvchi omil sifatida: psixolingvistik tadqiqot. – Barnaul: Altay universiteti nashriyoti, 2000. – 152 b.
7. Luriya A.R. Til va ong. – Moskva: Prosveshcheniye, 1979. – 319 b.
8. Serio P. Fransiyada matnlarni qanday o'qishadi // Ma'no kvadraturasi. – Moskva: Progress, 1999. – B.12-53.
9. Slavin A.V. Yangi bilimning yuzaga kelish muammosi. – Moskva: Nauka, 1976. – 294 b.